



CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTI

ZIRHLI-QALQON

ilmiy-axborot jurnali
№ 26 (40) 2025-yil mart

Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazaroya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Sh.Mirziyoyev
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni*

В военном обучении и научно-учебных сферах, также в сфере подготовки кадров мы должны тщательно стараться совмещать с практикой.

Ш. Мирзиёев
*Президент Республики Узбекистан,
Верховный Главнокомандующий
Вооруженными Силами*

Consistent implementation of the reforms initiated in the system of military education and science, special attention should be paid to bringing theory and practice as close as possible to training personnel for the field.

Sh.Mirziyoyev
*President of the Republic of Uzbekistan,
Commander-in-Chief of the Armed Forces*



**CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK
MUHANDISLIK BILIM YURTI**

ZIRHLI-QALQON

ilmiy-axborot jurnali
№ 28 (42) 2025-yil mart

Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.


Sh.Mirziyoyev
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni*

В военном обучении и научно-учебных сферах, также в сфере подготовки кадров мы должны тщательно стараться совмещать практикой.

Ш. Мирзиёев
*Президент Республики Узбекистан,
Верховный Главнокомандующий
Вооруженными Силами*

Consistent implementation of the reforms initiated in the system of military education and science, special attention should be paid to bringing theory and practice as close as possible to training personnel for the field.

Sh.Mirziyoyev
*President of the Republic of Uzbekistan,
Commander-in-Chief of the Armed Forces*



ZIRHLI QALQON

ILMIY – AXBOROT JURNALI

№ 26 (40)/2025- yil mart



TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir - bilim yurti boshlig'i, dotsent, polkovnik Shavkatbek Xusanbayevich Mamajonov.

Mas'ul muharrir - bilim yurti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari, h.f.d. (DSc), professor, polkovnik Sobirjon Sayipjanovich Abdurayimov.

Tahrir hay'ati a'zolari:

Bilim yurti ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi boshlig'i, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Shamudinov Sharafiddin Kamalovich;

Ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi katta ilmiy xodimi h.f.d. (DSc), k.i.x., QK xizmatchisi Sultanov Denis Igamberdiyevich;

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i p.f.f.d. (PhD), mayor Raximov Farrux Boltayevich;

MV XHX BB boshlig'ining o'rinnbosari s.f.f.d. (PhD), polkovnik Usmonov Sirojiddin Safarovich;

Bilim yurti ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi boshlig'i, f.f.f.d. (PhD), kapitan Ishpo'latov Inoyat Saparovich;

O'zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti Ispan tili amaliy fanlari kafedrasi mudiri, fil.f.d. (DSc), professor Baxronova Dilrabo Keldiyarovna;

Fag'ona davlat universiteti o'qituvchisi f.f.f.d. (PhD), Buzrukova Dilorom Mamirxonovna;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi mudiri k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Vorisova Ra'no Sobirovna;

Umumtexnik fanlar kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Yunusov Baxtiyor Abdullayevich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi professori, k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Hamroqulov G'ofurjon Begimqulovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasi professori, t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Matmurodov Farxod Matqurbanovich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), dotsent, QK xizmatchisi Ramonova Sadoqat Qomilovna;

Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shinlarni boshqarish kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Nigmatov Zafarjon Zokirovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Gapparov Shokir Xasanovich;

Quruqlikdag'i qo'shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasi katta o'qituvchisi t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Savriddinov Nukritdin;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Ulashov Jaxongir Zayniddinovich;

Tillar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Rahmonqulova Dilshoda Murodqoziyevna;

Tillar kafedrasi o'qituvchisi Juraboyeva Moxidil Maxmadaliyevna;

Chirchiq DPU kafedra dotsenti, Saitkulova Nazokat Raxmonovna;

O'R Jamoat xavfsizligi universiteti Qo'riqlashni muhandislik – texnik ta'minlash kafedrasi boshlig'ining o'rinnbosari, t.f.f.d. (PhD), polkovnik Xursandov Elyor Dustbekovich;

Gumanitar fanlar kafedrasi boshlig'ining o'rinnbosari p.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik Xasonboyev Bekzod Valijonovich;

O'R QK Akademiyasi Harbiy razvedka kafedrasi boshlig'i o'rinnbosari, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Gilyajdinov Rafael Talgatovich;

Bilim yurti Texnik ta'minot kafedrasi o'qituvchisi t.f.d. (DSc), dotsenti, kapitan Xurramov Akbar Ilhomovich;

O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy tadqiqot instituti ilmiy axborotlar bo'limi boshlig'i, h.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik Raxmatbayev Ravshan Jumabayevich.

Mas'ul kotib – Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Raxmanov Sayfiddin Jo'raboyevich.

Texnik dizayner - Axborotlashtirish va multimedia markazi boshlig'i, katta texnik II - darajali serjant Abduraxmonov Voxitjon Musalimxonovich

Mazkur jurnal bilim yurtining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining

2021-yil 4-iyun kunidagi № 300/5 qaroriga asosan harbiy, pedagogika, siyosiy va tarix fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan ilmiy-axborot jurnalidir.

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi kuch tuzilmalari tasarrufidagi hamda boshqa vazirlik va idoralarning oliv ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar, doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrleri, tinglovchilar, kursantlar va qo'shinlar ofitserlari tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalari kiritilgan.

Jurnalda qo'shinlarda Qurolli Kuchlarning qurilishi va isloh qilinishi, pedagogika va fandagi innovatsion yondashuvlarning turli jihatlari yoritiladi.

Jurnalda qo'shinlardan to'liq yoki qisman foydalanilganda "Zirhli qalqon" ilmiy-axborot jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Mualif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar shaxsan mas'uldir.

Jurnalda chop etilgan maqolalar bo'yicha taklif va mulohazalarni quydagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Indeks: 111715, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri Amir Temur ko'chasi - 15, Chirchiq OTQMBY.

Tel.: (+99870) 716-50-50. Faks: (+99870) 716-50-07. E-XAT: kanselyariya.chvtkiu@exat.uz.

© O'R Mudofaa vazirligi, Chirchiq OTQMBY nashriyoti 2025-yil mart Jurnal 417 bet (209 varaq) dan iborat.



MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA

URUNOV U.R. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiyaning samaradorligini oshirishda ustoz-shogird tizimining o'rni	4
RAHMONQULOVA D.M. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida chet tili o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari ..	10
AXUNOVA M.N. Oliy harbiy ta'lif muassasasi kursantlarining madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini shakllantirish	14
KURBANOVA A.U. Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klaster modellarini amalga oshirishning uslubiy-didaktik ta'minot ...	18
QODIROV B.E. Advantages of digital technologies in teaching foreign language	21
ABDULLAYEV SH K. Agressiv xulqni korreksiya qilishda pedagogning imkoniyatlari	26
ABDUKARIMOV F.M. Virtual ta'lif texnologiyalari asosida bo'lajak ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish	31
АХМАДЖОНОВ Б.А. Модели проведения обучения с военно-педагогическими кадрами в системе повышения квалификации (на примере США, Великобритании и России)	36
AMIROVA Z.F. Oliy harbiy ta'lif jarayonida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish tamoyillari	44
ИСМАИЛОВ Р.И. О повышении эффективности военного образования	49
UBAYDULLAYEV A.D. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish	57
BUZRUKOVA D.M. Bolalarda milliy muloqot xulqini shakllantirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish	63
FOZILOV S.Z. Mudofaa vazirligi tizimida harbiy kadrlarni o'qitish tizimining retrospektiv tahlili	67
XALIMOV E.X. Bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanib rivojlantirishning muhim jihatlari	73

NAZARIYA VA AMALIYOT

TO'RAYERV G*.T. Havo-desant bo'linmalarining jangovar guruhi tomonidan tog'li hududlarda razvedka-qidiruv harakatlarini olib borilish usullari	79
АБДИЕВ Р.Р., АДХАМОВ Р.Р. Тактик бўғиндаги бўлинмаларни замонавий жанговар харакатларда қиска масофага учадиган кичик ҳажмга эга бўлган учувчисиз учиш аппаратларини қўллаш тажрибаси ...	85
XAMRAKULOV A.A. Maxsus operatsiyalar kuchlari ishg'ol qilish bo'linmalarining binoni egallashda taktik harakatlari	93
MASHARIPOV A.S. Simulyatorlar yordamida harbiy operatsiyalarning samaradorligini tahlil qilish	99
TURG'UNBOYEV N.T. Maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalariga nomzodlarni saralash tajribalari	106
VORISOVA R.S. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida amaliy kimyo fanini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari	112
ALLAMURODOVA N.B. A-Analitik funksiya uchun koshining teoremasi	120
MIRAXMEDOV A.R. O'ta muhim va toifalangan obyektlarni xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari va ularning muammolari tahlili	125
SHERQULOV O.A. Harbiy sohada sun'iy intellektidan foydalanish va uning samaradorligi	136
XUSANOVA Dj.K. Zirhli texnikalarda issiqlik almashinuv hodisalari	139
ПАРИЕВ Э.Н., АБДУКАХХОРОВ З. Влияние ауценитного зерна на механическую свойства материалов.....	143
ABDULLAYEV SH.K. YUNKER-DG-250 yangi takomillashtirilgan va avtomattashtirilgan yuk parashut tizimi	150
MIRAXMEDOV A.R. Toifalangan obyektlarda vidiokuzatuv kameralaridan samarali foydalanish va ularning ish samaradorligini oshirishda optimallashtirishning ahamiyati	158
ABDURAXIMOV U.A. Cho'l hududida mudofaa jangini tayyorlash va olib borishning ayrim jihatlari (olib borilgan harbiy mojarolar tajribasidan)	167
ULASHOV J. Harbiy sohadagi ba'zi muammolarning matematik yechimlari	172
ALLABERDIYEV I.B. Respublikamiz qurolli kuchlari tizimida foydalanayotgan BTR-80, BTR-82a va yuk avtomobilari sovutish tizimi ish jarayonini tahlili	178
XOLIQOVA D. Zamonaviy psixologik amaliyotni takomillashtirishda psixodiagnostika metodlarining o'rni ...	184
ESHMATOVA G.Q. Tajribalarni matematik rejlashtirish usuli bilan tandem g'altakmolaning parametrlerini maqbullshtirish	189
MUSAMEDOV Q.U. Avtomobil ichki yonuv dvigatellarida qo'llaniladigan sovitish suyuqliklari va ularning turlari	193
G'APPAROV SH.X. JUMAYEV A.S. XALILAYEV B. Maydalash rotori va biterlarning o'zaro joylashishi va rotorning aylanishlar sonini aniqlash	201
ATABAYEV X.M. Havo-desant tayyorgarligi bo'yicha tungi mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ...	208
БУРАНКУЛОВА Н.М., ЖАЛОЛОВ О.А. Jangovar jarohatlarning harbiy xizmatchilar jismoniy va ruhiy holatiga ta'siri	214
БОЙХОНОВ Ш.М. Ўзбекистонда ижро хокимияти устидан парламент назорати (депутатлик сўрови) самарадорлигини ошириш masalalariiga oid	220
RAXMANOV A.A. Isroil davlatining ilg'or tajribalarini o'rganish	225



TARIX VA BUGUN

KAMOLOV X.B. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitser kadrlarni tayyorlash tizimining rivojlanish tarixi	231
SHOYIMOV I.Q. JM-13 jangovar mashinasining rivojlanish istiqbollari: tarixi va buguni	239
ABDUVOXIDOV F.R. O'zbekistonda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanining rivojlanish tarixi ..	248
УБАЙДУЛЛАЕВА Ш.А. XX asr 50-60 йилларида соғлиқи сақлаш ишларини йўлга қўйилишида хотин-қизлар иштироки (Сурхондарё воҳаси мисолида)	254
SHUKUROV A.S. Amir Temur va dunyoning boshqa buyuk sarkardalarining janglarni rejalahshtirish usullarini	259
XOLIKOV N.T. Buxoro xonligining va usmoniy turk davlati bilan olib borgan tashqi aloqalari (XVI asr misolida)	262
VAXIDOV F.R. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga kadrlar tayyorlashning tarixiy evolyusiyasi	267

HARBIY TEKNIKA VA QUROL - YAROG'LAR

ISHPULATOV O.J. O't ochish pozitsiyasida komandirlik mashinasini ishga tayyorlash va unda ishslash tartibinining o'ziga xosligi	272
NIYOZOV S.O'. Zamonaivy janglarda yer ostida o'q otar qurollarni qo'llashga o'rgatish o'rni va roli	278
XUDAYBERDIYEV G'S. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida avtomobil texnikalardan to'g'ri foydalanish xavfsizligini ta'minlash	283

OCHIQ BAHS VA MUNOZARA MINBARI

КОСЬЯНЕНКО А. И. Личностные качества командиров как основа управления подчиненным воинским коллективом	289
ИБРАГИМОВ С.М. Исследование ряда каучуков в качестве полимерной основы защитных материалов.	299
JAMOLDINOVA S.N. Bo'lajak o'qituvchilar konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili ..	304
ХАЙТБОЕВ А.М., QOSIMOV О.О. Piyodalar o'tish joylarida va yo'nalishli transport vositalarini yo'lovchilar kutish tartibi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari	311
ЙУЛДОШОВ О.И., ЗОИРОВ М.А. Барражирующие боеприпасы и способы борьбы с ними	315
ABDULLAYEV SH.K. AQSH qurolli kuchlari tomonidan yaratilgan va hozirgi kunda qo'llanilib kelayotgan JPASD boshqariladigan yuk parashut tizimlari	322
ACHILOV A.A. Pistolet makarov va Glock-17 pistoletlarining o'ziga xosligi va farqli jihatlari	326
DJURAYEV N.A. O'zbekistonning barqaror taraqqiyot yo'lida erishgan yutuqlar dinamikasi	329
MAJIDOV A.T. Rossiya va ukraina qurolli kuchlarida boshqaruv tizimi	335
MUSAMEDOV Q.U. Камаз-4326 avtomobili ichki yonuv dvigatellarining issiqlik almashtirgichi	340
KULDASHEV SH.R. Ichki yonuv dvigatellarini tirsaklı vallarini sayqallah qurilmalariga qo'yiladigan asosiy texnik talablar	345
ХАЙТБОЕВ А.М., QOSIMOV О.О. Yuk va yengil avtomobil texnikalarini yo'llarda harakatlanish samaradorligini oshirish va xavfsizligini ta'minlash asoslari	351
TOSHOV F.K., GOPOROV M.T. Yuqori aniqlikdagi qurollar	357
МАТМУСАЕВ Т.М. Bo'lajak ofitserlarni psixologik xususiyatlarni aniqlash kategoriyasi	365
МАТМУРОДОВ Ф.М. Обобщенная иерархическая эквивалентная расчетная схема нагрузочного состояния и новый метод составления систем уравнения движения механических систем	370
ИСМАИЛОВ Р.И., УРИНОВ Ф.С. К Вопросу о повышении эффективности разведки воздушного противника в вооруженных конфликтах современности	374
SAFAROV Y.B. Zamonaivy qurolli mojarolarning rivojlanish tendentsiyalari va ularning harbiy san'atga ta'siri	378
RAXMONBERDIYEV F.A. Maxsus operatsiyalar kuchlari va razvedka bo'linmalarini turli hududlarda razvedka qidiruv harakatlarini olib borishning o'ziga hos xususiyatlari	381
RAXMONBERDIYEV F.A. Maxsus operatsiyalar kuchlari va razvedka bo'linmalarini tomonidan razvedka qidiruv harakatlarining olib borilishi	387
TURAXUJAYEV O.S. Toifalangan va tartibotli obyektlarning xavfsizligini ta'minlash sohasida kursantlarga bilim berishda noan'anaviy darslarni tashkil etish	394
ОТАБАЕВ А.К. Ўзбекистонни ижтимоий-сиёсий жиҳатдан модернизациялаш даврида институционал янгиланишлар	397
ПЕТРЯНИН С.А. К развитию процесса тактической подготовки дзюдоистов-юниоров на этапе совершенствования спортивного мастерства	402
SHERMATOV I.S., NURMATOV B.M. Zamonaivy janglarda havo hujumidan mudofaa bo'linmalarini qo'llash	408
"Zirhli Qalqon" ilmiy-axborot jurnaliga maqolalarni nashr ettirish uchun qo'yiladigan talablar	416



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi.

CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda, o‘qituvchilarning konfliktlarni hal qilish va ularni samarali boshqarish bo‘yicha malakasini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy-izlanishlarni nazariy tahlili va xorijiy tajribalarning tahlilini o‘rganilganligini, o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda qanday muvaffaqiyatlar qozonilganini va bunday tajribalarni o‘z tizimimizga qanday joriy etish mumkinligini ko‘rib chiqilgan. O‘qituvchilik faoliyatida nafaqat pedagogik bilim va ko‘nikmalarни, balkи ijtimoiy, psixologik va konfliktologik madaniyatni ham mujassamlashtirishi zarurligini. Maktab va boshqa ta’lim muassasalarida, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlar va interaksiyalar ko‘pincha turli xil nizolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarning konfliktlarni boshqarish va ularni hal qilish qobiliyati, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini xorijiy tajribalar misolida nazariy va amaliy taxlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, konfliktologik madaniyat, konfliktologik komponentlik, pedagogik konfliktologiya, ijtimoiy konfliktlar, faylasuf-dialekt Geraklit, xristian falsafasi, konfliktlarsiz jarayonlar, yovvoyi davr, Iso ta’limoti, sotsial darvinizm, konflikt sotsiologiyasi, musobaqalar, konflikt, moslashish, assimilatsiya, nizoli vaziyat.

Аннотация: В статье рассматривается теоретический анализ важных научных исследований и зарубежного опыта, направленных на развитие конфликтологической культуры будущих учителей, повышение квалификации учителей по разрешению и эффективному управлению конфликтами, а также рассматриваются достигнутые успехи в развитии конфликтологической культуры учителей и то, как такой опыт может быть внедрен в нашу систему. Необходимость включения в процесс обучения не только педагогических знаний и навыков, но и социальной, психологической, конфликтологической культуры. В школах и других учебных заведениях взаимоотношения и взаимодействие между учениками и учителями часто могут приводить к различным конфликтам. Таким образом, теоретический и практический анализ зарубежного опыта показывает, что способность педагогов управлять и разрешать конфликты имеет важное значение для обеспечения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: будущие учителя, конфликтологическая культура, конфликтологическая компетентность, педагогическая конфликтология, социальные конфликты, философ-диалектист Гераклит, христианская философия, бесконфликтные процессы, эпоха дикости, учение Иисуса, социальный дарвинизм, социология конфликта, конкуренция, конфликт, адаптация, ассимиляция, конфликтная ситуация.

Abstract: This article examines the theoretical analysis of important scientific research and foreign experience aimed at developing the conflictological culture of future teachers, improving the skills of teachers in resolving conflicts and their effective management, considers what successes have been achieved in developing the conflictological culture of teachers, and how such experiences can be introduced into our system. It is necessary to embody not only pedagogical knowledge and skills in teaching, but also social, psychological and conflictological culture. In schools and other educational institutions, relationships and interactions between students and teachers can often give rise to various conflicts. Therefore, the ability of teachers to manage and resolve conflicts is of great importance in ensuring the effectiveness of the educational process, and theoretical and practical analysis of foreign experience is presented.

Keywords: future teachers, conflictological culture, conflictological competence, pedagogical conflictology, social conflicts, philosopher-dialect Heraclitus, Christian philosophy, conflict-free processes, savage era, Jesus' teachings, social Darwinism, conflict sociology, competition, conflict, adaptation, assimilation, conflict situation.

Respublikamizda oliy ta’lim tizimida keng qamrovli ta‘limiy-tarbiyaviy islohotlar olib borilmoqdaki, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi PQ-3735-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi sifatida respublikamizda oliy ta‘lim tizimida uning sifati va samarasini ko‘p jihatdan pedagoglarning kasbiy mahoratiga bog‘liqligi ko‘p e’tirof etilmoqda [1]. “Pedagogik konfliktologiya” fani nisbatan yosh va ko‘p sohalarda rivojlanib borayotgan umumiy pedagogikaning bir bo‘limi sifatida kasbiy- texnik ta‘limning rivojlanishi bilan uyg‘unlikda taraqqiy qilib bormoqda. Ushbu fanning vazifasi- bo‘lajak pedagoglarni pedagogik konfliktlarning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantiradi, pedagogik konfliktlarning oldini olish uchun zarur ko‘nikmalarini



shakllantiradi hamda pedagogik konfliktlarni hal etish strategiya va usullarini qo‘llay olish malakalarini hosil qiladi.

Hozirgi kunda butun jahon bo‘ylab bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularni turli zo‘ravonliklar ta’siridan himoyalash, axborot xavfsizligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, YuNESKO tomonidan qabul qilingan “Bola huquqlari konvensiyasi”da yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, bo‘lajak o‘qituvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda bo‘lajak o‘quvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosiga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarda birgalikda ijodiy faoliyat yuritish orqali samarali muloqotga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish, Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zaro kelishuvga asoslangan birgalikdagi faoliyat pedagogik konfliktlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o‘rni va keng tarqalganligi uzoq o‘tmishimizga ham e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak. O‘tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar, yozuvchilarning asarlarida, afsonalarida va g‘oyalarida vujudga kelishi ehtimol bo‘lgan konfliktlarning yuzaga kelish sabablari va ularni tugatish yo‘llari haqida muayyan fikrlar bildirilgan. O‘tmishda konfliktlarni hal etishning asosiy usuli sifatida urug‘- qabila oqsoqollari, dohiylarining yakka hokimligi tushunilgan. Biroq ilk davlatchilik tuzilmalarining vujudga kelishi har doim ham jamiyatda uyg‘unlikka olib kelmagan, ba‘zida ijtimoiy notenglikni keskinlashtirgan, konfliktlarni yaqqol namoyon etgan va kuchaytirgan. Shu bois asrlar davomida insonlar urushlar bo‘lmaydigan, nizolar va adovat barham topadigan mukammal keljakka ishonch hissi bilan yashaganlar.

Qadimgi yunon faylasuflari birinchilardan bo‘lib ijtimoiy konfliktlarning tabiatini to‘g‘ri tushunishga uringanlar. Mashhur qadimgi faylasuf-dialektik olim **Geraklit (er.av. 530-470 y.y.)** urushlar va ijtimoiy konfliktlar haqidagi fikrlarini borliqning tabiatiga bo‘lgan qarashlarning umumiyligi tizimi bilan bog‘lashga harakat qilgan. Uning fikricha, «koinotda hukm suruvchi yagona umumiyligi qonun- bu urushdir, u hamma narsaning otasi va shohidir. U kimlarnidir xudolar va kimlarnidir insonlar qilib yaratadi, insonlarining ba‘zilarini qul, boshqalarini erkin qilib dunyoga keltiradi. Hamma narsa, shu jumladan inson muloqoti normalari ham abadiy aylanma harakat va bir-biriga aylanish ta’sirida hayot kechiradi. Dunyoda barcha narsa adovat va nifoq orqali tug‘iladi» deb uqtirgan. Geraklitning bu so‘zlari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kurashning ijobiy rolini to‘g‘ri asoslashga bo‘lgan dastlabki urinislardan biri ekanligini aytishimiz mumkin. Konfliktlar o‘zining yangi xususiyati bilan ijtimoiy hayotning muhim atributi, ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim va zarur sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlariga oid izlanishlariga nazar soladigan bo‘lsak: Geraklitning konfliktlar va kurash barcha narsaning asosi sifatida hisoblanishi haqidagi g‘oyalar boshqa qadimgi faylasuf-materialist **Epikur (er.av. 341-270 y.y.)** tomonidan rivojlantirilganligini, ayni paytda u to‘qnashuvlarning salbiy oqibatlari qachonlardir insonlarni doimiy tinch-totuv sharoitda yashashga majbur qiladi deb hisoblaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shunday qilib, jamiyatning konfliksiz holatda bo‘lishi haqidagi g‘oyalar dastlabki nazariy xulosalar bilan to‘ldiriladi. Xristian falsafasi o‘z rivojining dastlabki bosqichida



insonlar o‘rtasida tinchlik, hamjihatlik, qardoshlikning afzalligini isbotlashga harakat qilgan. II-III asrlar arafasida **Kliment Aleksandriyskiy Origen va Tertullion** qurolli to‘qnashuvlarga qarshi qaratilgan nazariy fikrlarni rivojlantirganlar, biroq ular tarixiy taraqqiyot tabiiy jarayoniga jiddiy ta‘sir ko‘rsata olmaganlar. IV asrning boshiga kelib, «Iso ta‘limoti» ning urushlar bilan kelisha olmasligi haqidagi tamoyiliga shubha bilan qaraladi. O‘rta asrlardan yangi davrga o‘tishda g‘arbiy va markaziy Evropa mamlakatlarida sodir bo‘lgan madaniy va g‘oyaviy rivojlanish davrida ijtimoiy konfliktlarga murakkab va o‘ta ziddiyatli baholar beriladi. Bu davrda taraqqiy parvar olimlardan **T.Mor, E.Rotterdamskiyl, F.Rabl va F.Bekonlar** ijtimoiy to‘qnashuvlarni hamda qurolli xususiyatga ega bo‘lgan konfliktlarni keskin qoralaganlar. Konfliktlar tabiatи haqidagi ingliz faylasufi **Frensis Bekon (1561-1626)** tomonidan bildirilgan fikrlar ham o‘ziga xos hisoblanadi. U bиринчи bo‘lib mamlakat ichki hayotidagi ijtimoiy konfliktlar sabablari majmuuni chuqur nazariy jihatdan tahlil qiladi, ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, siyosiy, ruhiy sharoitlarini hamda ularni bartaraf qilish usullarini qarab chiqadi. U ijtimoiy tartibsizliklarni yuzaga kelishida moddiy sabablarining hal qiluvchi rolini chuqur anglab yetadi. Shulardan biri xalqning nochor moddiy ahvoli hisoblanadi. F.Bekon konfliktlarni oldini olishning muayyan vositalariga ham e‘tibor qaratadi. U ijtimoiy konfliktlarning moddiy sabablarini mumkin bo‘lgan barcha usullar bilan, ular ichida alohida o‘ringa ega bo‘lgan jamiyatdagi ayrim tabaqalarning qoniqarsiz ahvolini mumkin qadar barcha vositalar bilan bartaraf qilish zarurligini ta‘kidlab o‘tadi.

Bu davrda XVII asr ingliz demokratlari va frantsuz ma‘rifatparvarlari **D.Pristli, Sh.Monteske, D.Didro, J.J.Russo va Volter** qurolli konfliktlarni, bosqinchilik hamda zo‘rlikni keskin tanqid qilib chiqadilar. Ular qurolli konfliktlarga «yovvoyi davr» qoldig‘i deb qaraganlar va feodal tuzum asoslarini tugatish «abadiy tinchlik»ka olib keladi deb o‘ylaganlar. Shu sababli bu davrdagi asarlarda jamiyat hayotini tashkil etishning oqilona shakllarini axtarishga, davlat tuzilishining eskirgan shakllarida ildiz otgan ijtimoiy konfliktlar sabablarini tugatishga ko‘p e‘tibor berilgan. XVIII asrda mutafakkirlar jamiyat hayotini umumjahon tarixi doirasida tushuna boshlaganlar. Bu jihat **J.J.Russo (1712-1778)** ning ijtimoiy falsafasida ko‘rinadiki, u umumjahon tarixiy jarayonini quyidagi uch tarkibiy qismga bo‘ladi: insonlar «tabiiy holat»da erkin va teng bo‘ladilar, so‘ngra sivilizatsiya rivojlanishi insonlarni teng, erkin va baxtli bo‘lishdan mahrum qiladi va nihoyat, «ijtimoiy shartnoma» tuzib ijtimoiy munosabatlarning yo‘qotilgan uyg‘unligiga, «abadiy tinchlik»ka, hamjihatlik va birlikka erishadilar. J.J.Russoning «tabiiy holat» tabiatiga doir qarashlari uning ko‘pchilik zamondoshlari tomonidan ma‘qullangan.

Mashhur nemis faylasufi **I.Kant (1724- 1804)** esa, “qo‘shnichilik asosida yashovchi insonlar orasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas, ... aksincha, u urush holatidir, ya‘ni agar to‘xtovsiz dushmanchilik harakatlari bo‘lmasa ham ularning doimiy tahdidi mavjud. Demak, tinchlik holati o‘rnatalishi lozim”. Bu yerda muayyan qarama-qarshi nuqtai nazarni borligini ko‘rishimiz mumkin. Bir tomonidan, **T.Gobbs** kabi «tabiiy holat»ga «barchaning boshqalarga urush qilishi» holati deb qarash, boshqa tomondan esa, J.J.Russo singari kelgusida tinchlik va totuvlikning butunlay yangi holatini o‘rnatalishi imkoniyatiga bo‘lgan ishonch aks ettirilgan.

Yangi davrning tarixiy doirasida ham ijtimoiy konfliktlarning sabablari va ularni oldini olish istiqbollari haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Biroq bu fikrlar qanchalik turli tuman bo‘lmasin ularda jamiyat rivojlanishida odamlar o‘rtasidagi totuvlik va hamjihatlikning hal qiluvchi rolini, o‘rta asr qoldiqlariga, tartibsizliklariga va urushlarga umumiyl salbiy baho berish, kelgusida «abadiy tinch» hayotga erishish imkoniyatiga bo‘lgan umidlarni tan-



olinishi xos bo‘lgan. XIX asrga kelib bu masalaga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgara boshladi. Nemis faylasufi **Gegel (1770-1831)** urushlar va ijtimoiy konfliktlarga baho berishga o‘zgacha yondashadi. Eng avvalo, u jamiyatning rivojlanishida urushlarning ijobiy rol o‘ynashi xususida muayyan fikrlarni bildiradi. Shu bilan birga kuchli davlat hokimiyati tarafdori bo‘lgan Gegel davlatning yaxlitlilagini zaiflashtiruvchi mamlakat ichkarisidagi ijtimoiy tartibsizliklar va qo‘zg‘olonlarga qarshi chiqadi. Ijtimoiy taraqqiyotning murakkab jarayonlarini va jamiyat hayotida ijtimoiy konfliktning o‘rnini yanada chuqur anglash tarixiy jarayonlarning borishi bilan ob‘ektiv tarzda belgilandi [3]. XIX asrda jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy va boshqa sohalarida bo‘lib o‘tgan keskin o‘zgarishlar ijtimoiy nazariyalar mazmuniga ta‘sir etmasdan qolmadı. Bu nazariyalarda izohlanishicha, ijtimoiy taraqqiyot davomida kurash, konfliktlar va to‘qnashuvlar nafaqat bo‘lishi mumkin, balki ijtimoiy borliqning muqarrar vogeliklari hisoblanadi.

Ingliz iqtisodchisi, ruhoniy **Tomas Maltus (1766-1834)** ning “Aholi o‘sishi qonuni haqida tajriba” nomli asarida (1798) mamlakatda o‘sib boruvchi ishsizlik holati yangicha tushuntirilgan. Xalqning nochorligini tabiatning “abadiy biologik xususiyatlari” bilan tushuntirib, u aholi sonining o‘sishi geometrik progressiya, yashash vositalari arifmetik progressiya bo‘yicha ko‘payib borishi haqidagi “tabiiy qonun”ni ishlab chiqgan. Mehnatkashlarning kambag‘allashuvi sabablarini sanoat to‘ntarishi va dehqonlarni yersizlantirish siyosatining tarixiy oqibatlarida emas, balki ishchi sinfining “telbalarcha ko‘payish”ga bo‘lgan “yengil” munosabatida deb qaragan. Yashash uchun kurash muammosi ingliz biologi **Charlz Darvinnning (1809-1902)** ta‘limotida ham markaziy o‘rinni egallab kelgan. Uning biologik evolutsiya nazariyasining asosiy mazmuni “Tabiiy tanlanish yo‘li bilan turlarning kelib chiqishi” nomli kitobida bayon etilgan. Kitobdagi asosiy g‘oya— bu yashash uchun doimiy kurash sharoitida amalga oshadigan jonli tabiat rivojlanishi bo‘lib, u eng moslashgan turlarni tanlashning tabiiy mexanizmidan iborat. Ch.Darvinnning bu g‘oyalarini ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga qo‘llash haqida bir narsa aytish qiyin. Uning ijodini o‘rganuvchilar o‘rtasida bu masalada yagona fikr yo‘q. Biroq uning ta‘limotidan so‘ng ijtimoiy hayot evolutsiyasini yashash uchun kurash va tabiiy tanlanish biologik qonunlari asosida tushunishga urinuvchi yo‘nalish- “sotsial darvinizm” shakllangan. Yashash uchun kurash tamoyiliga asoslangan sof sotsiologik konsepsiya pozitivizm asoschilaridan biri **Gerber Spenser (1820-1903)** tomonidan ishlab chiqilgan. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni bu eng moslashgan individlarning yashash qonuni deb hisoblaydi. G.Spenser ta‘limotiga ko‘ra, o‘zaro kurashish holati universal hodisadir. U alohida olingan jamiyat doirasidagina emas, balki jamiyat bilan uni o‘rab turgan tabiat o‘rtasida bo‘ladigan muvozanatni ham ta‘minlab beradi.

Konfliktlarni nazariy tahlil qilishdagi yangi bir yo‘nalish sotsial darvinizmning polyak-avstriyalik vakili yurist **Lyudvig Gumplovich (1838-1909)** ijodida ko‘rishimiz mumkin. U umumjahon tarixi irqlarning yashash uchun doimiy kurashidan kelib chiqqanligini ta‘kidlab, irqiy tafovutlarning mohiyatini biologiya fani hulosalari bilan emas, balki madaniy xususiyatlar bilan tushuntiradi. Alovida irq- bu madaniyatning maxsus tipidir. Konfliktlar manbaini faqat inson tabiatidan emas, shuningdek madaniyatning o‘z tipi bilan farqlanuvchi ijtimoiy hodisalardan ham qidirish kerakligini ta‘kidlab o‘tadi. L.Gumplovichning fikricha, konfliktlar birgina muhim ijtimoiy jarayon emas. Ijtimoiy birlashish jarayoni ham muhimdir, uning asosida yanada kengroq ijtimoiy uyushmalar, davlatlar paydo bo‘ladi.

L.Gumplovichning ijtimoiy konflikt tabiatiga bo‘lgan qarashlarini uch asosiy yo‘nalishga ajratib ko‘rsatadi:



1) konfliktlar tarixiy jarayonning mohiyatidir, ularning xarakteri turlicha, biroq ularning hammasi taraqqiyot omilidir;

2) jamiyatning hukmronlar va qaramlarga bo‘linishi abadiy hodisadir;

3) konfliktlar jamiyatning birlashuviga yordam qiladi.

XIX asr oxiri oxiri va XX asr boshlarida sotsiologiya konflikt muammolarini ishlab chiqishga tobora ko‘proq ta‘sir ko‘rsata bordi. Konflikt muammolarini ishlab chiqish sotsiologiyadagi turli yo‘nalishlar tomonidan amalga oshirildi. Ularning hammasi ham konfliktni sotsiologik konsepsiyalarning boshlang‘ich kategoriyasi deb tan olmasalarda, biroq ular konfliktlarning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini va ularni nazariy tahlil qilishning zaruratini muayyan darajada ta‘kidlab o‘tganlar. Nemis sotsiologi **Georg Zimmel (1858-1918)** birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga “**konflikt sotsiologiyasi**” atamasini kiritgan. U tarixiy jarayon mohiyatini bilishdan voz kechishni hamda ijtimoiy muloqot va o‘zaro ta‘sirning “sof shakllari”ni tahlil qilish bilan shug‘ullanishni tavsiya etadi. Ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning nisbatan qat‘iy shakllari ichida avtoritet, kelishish, bo‘ysunish, hamkorlik va boshqalar bo‘lib, konflikt o‘zining alohida o‘rniga ega. Konflikt ijtimoiy hamkorlikka olib keladi, muayyan ijtimoiy tuzilmalar xarakterini belgilaydi, ularni tashkil etish tamoyillari va normalarini mustahkamlab boradi. G.Zemmelning nazariy qarashlarini XX asrning 20-yillarda Chikago maktabining yirik vakillari **Robert Park (1864-1944)**, **Ernst Berdjess (1886-1966)**, **Albion Smoll (1854-1926)**lar qo‘llab-quvvatlaganlar. Ular ijtimoiy jarayonga o‘zaro ta‘sirning o‘zaro bog‘liq 4 ta tipi nuqtai nazaridan qaraganlar: **musobaqalar, konflikt, moslashish va assimilatsiya**.

Konfliktlar ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning bu tiplari orasida markaziy o‘rinni egallab, musobaqadan moslashishga va assimilatsiyaga o‘tish rolini bajaradilar, shu tarzda ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim manbai hisoblanadilar [2]. Sotsiologiyaning amaliy maqsadi-konfliktlarni hamkorlikka aylanishiga ko‘maklashish, ijtimoiy guruuhlar o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarga ta‘sir etishdir. Fransuz faylasufi **Jorj Sorel (1847-1922)** ijtimoiy taraqqiyot jarayonida muhim o‘rinni siyosiy kurashga va zo‘rlikka ajratadi. U zo‘rlikni boshqaruvning boshlang‘ich asosiy shakli va tarixning eng oliy ijodiy asosi deb hisoblagan. Konfliktlarning siyosiy konsepsiyasini bir mucha boshqa tipi germaniyalik **Frants Oppeneymer (1864-1943)** tomonidan ishlab chiqilgan. U ko‘proq davlatning kelib chiqishi masalalari va unda kechadigan ijtimoiy jarayonlar xususiyatlariga qiziqgan. Uning fikricha, davlatning vujudga kelishida iqtisodiy sabablar hal qiluvchi rol o‘ynamagan. U davlatni- “bir guruuh kishilar bosqinchilar tomonidan boshqa guruuh kishilarga- bosib olinganlarga nisbatan zo‘rlik bilan qo‘llanilgan huquqiy institut” deb tahlil qilgan. U sinflar va davlatning kelib chiqishini ichki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish omillari bilan tushuntiruvchi nazariyani keskin tanqid qilib, ularni “nazariya va amaliyotdagi barcha ijtimoiy illatlarning manbai” deb e’tirof etadi. Davlat faqat odamlarni bo‘ysundirish va qullikka solish yo‘li bilan vujudga kelishi mumkin. Shu vaqt dan boshlab sinflar o‘rtasidagi munosabatlar mohiyati o‘zgarmay qolaveradi. Faqat ekspluatatsiya shakllari- jismoniy zo‘rlikdan to iqtisodiy va siyosiy majburlovgaga qadar o‘zgarib boradi. Shunday qilib, XIX-XX asrlarda ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy kontseptsiyalarida konflikt muammofiga bo‘lgan nazariy qiziqish yaqqol ko‘rinadi.

Tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar orasida konfliktsiz hamkorlik aslo bo‘lmaydi. Bunda yaxshi hulqli o‘quvchilar jamlangan guruuh yaxshi o‘qituvchilar masalasida omadsizlar degan gap emas. Gap shundaki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarda ham o‘quvchilardagi kabi ruhiy inqiroz uchrab turadi. Bugungi kunda o‘qituvchi ta’lim jarayoniga innovatsiyani bevosita joriy etishi va innovatsion jarayonni olib borishi sub‘yekt



sifatida baholanmoqda. Pedagogik jarayondagi innovatsiya esa ta’lim va tarbiyaga oid barcha yangiliklarni amaliylashtirish, shu bilan birga ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Mana shunday tarzda tashkil etilgan ta’lim tizimiga oid innovatsion yo‘nalishlardan biri pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish omillarini inobatga olish demakdir. Mashhur rus olimlardan **A.N.Samarin, Ye.I.Stepanov, V.N.Shalenko** konfliktlogiya sohasining nazariy asoslariga, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o‘ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar, shu jumladan pedagogik konfliktlar masalalari ko‘pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi [4].

M.M.Ribakova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, har qanday ijtimoiy nizolar kabi pedagogik nizolarning kelib chiqishida ham boshlang’ich asos— bu aynan nizoli vaziyat hisoblanadi [5]. Nizoli vaziyat— bu ob’ektiv narsalar shaxs tomonidan sub’ektiv qabul qilingan pedagogik jarayonning murakkab ob’ektiv-sub’ektiv holati bo‘lib, u ishtirokchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi. **V.I.Andreyev** nizoli vaziyatlar “ikki yoki undan ortiq tomonlar ishtirokchilarning yopiq yoki ochiq o‘zaro kurashishi bo‘lib, ularning har biri o‘zлari uchun ahamiyatli bo‘lgan muammoni hal qilish maqsadi, sabablari, vositalari va usullariga ega” ekanligiga e’tiborni qaratadi [6]. **V.A.Suxomlinskiy** pedagogik nizolarni “maktab faoliyatiga xos bo‘lgan jiddiy, murakkab va ko‘ngilsiz hodisa” deb ta’rif berad. Ya’ni “pedagog va bola o‘rtasidagi, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasidagi, pedagog va jamoa o‘rtasidagi nizolar— maktab faoliyatiga xos bo‘lgan jiddiy, murakkab va ko‘ngilsiz hodisadir. Nizolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish— o‘qituvchining pedagogik mahorat va texnikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Nizoni oldini olish pedagog jamoasining tarbiyaviy kuchini saqlaydi va hosil qiladi” deb ta’kidlaydi [7].

Shunday qilib, pedagogik nizolar har bir o‘quvchi va o‘qituvchi pedagogik faoliyatining uzviy ajralmas qismi va tarkibi bo‘lib, o‘qituvchi pedagogik nizolar nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga hamda konfliktologik kompetentlilikka va konfliktologik madaniyatga ega bo‘lishi lozim. Nazariy tahlil natijalari nizolar, pedagogik nizolar va ularning mohiyati masalasi pedagogika, psixologiya hamda boshqaruv sohalarida o‘ziga xos dolzarblik kasb etuvchi muammolardan biri ekanligini to‘la tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.06.2018й., 07/18/3775/1313.
2. Ахмедова М. Педагогик конфликтология.— Т.: ТДПУ, 2014.– 180 б.
3. Гришинаа Н.В. Психология конфликта.— СПб.:Питер, 2000. 464 с.
4. Черняева, Т.В. К вопросу об актуальности конфликтологических исследований / Т.В. Черняева // Социальная психология в образовании: проблемы и перспективы: материалы международной научной конференции. 4.2. Саратов: «Научная книга», 2007.– С. 283-286.
5. Фелау Э. Конфликты на работе. Как их распознать, разрешать, предотвращать./Пер. с нем.– М.: Омега-JI, 2006.– 117 с.
6. Акимова Е.Е. Педагогические основы использования конфликта в образовательном конфликте: Автореф. дис. . канд. пед. наук.– Н. Новгород, 1999.– 22 с.
8. Burton J.W., Dukes F. Conflict: Practices in Management, Seulement and Resolution. London, Basingstoke: Macmillan, 1991.– 288 p.



9. Jamoldinova, S. N. (2024). O'qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati. TA'LIM VA TARAQQIYOT Ilmiy-uslubiy jurnal, 1(6), 44-50.

10. Jamoldinova, S. N. (2024). The role of the teacher's professional competence in conflict situations. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(11), 15-18.

Taqrizchilar:

Sh. Yusupov.

O'R QK Akademiyasi Doktorantura bo'limi katta ofitseri, h.f.f.d.(PhD), podpolkovnik.

U.A. Muysinaliyev.

Harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi,
h.f.f.d.(PhD), katta ilmiy xodim, podpolkovnik.